

“ANOR” HIKOYASIDA ONALIK TUYG‘USINING BADIY IFODASI

Yo‘ldosheva Shaydo Ravshanbek qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti talabasi

shaydoyoldosheva5@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasi tahlil qilinib, unda ifodalangan onalik mehri, insoniy tuyg‘ular va fidoyilik g‘oyasi haqida so‘z yuritiladi. Asar o‘zbekcha va inglizcha talqinlar asosida solishtirilib, milliy ruh va umuminsonga xos qadriyatlarning badiiy ifodasi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qahhor, “Anor”, ona, mehr, fidoyilik, insoniylik, tarjima, milliylik.

O‘zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Abdulla Qahhor o‘z asarlarida inson qalbi, hayotiy haqiqat va ma’naviy qadriyatlarni sodda, ammo chuqur ma’noda ifoda etgan. Uning hikoyalari ko‘p hollarda qisqa, ammo hayotiy va ta’sirli bo‘ladi. “Anor” hikoyasi ham shunday asarlardan biri bo‘lib, unda onalik tuyg‘usi, mehr va fidoyilik kabi umuminsoniy qadriyatlar yuksak badiiylikda tasvirlangan. Oybek, G‘afur G‘ulom, Said Ahmad singari adiblar ham o‘z asarlarida insoniylik mavzusini ko‘p yoritgan bo‘lsalar-da, Qahhorning “Anor” hikoyasida bu g‘oya ayniqsa ixcham, ammo kuchli shaklda ifoda etiladi. Hikoya bir qarashda oddiy voqea haqida, lekin uning ortida butun onalik olami, insoniy mehrning buyukligi mujassamdir.

Hikoyada bir bola kasal onasiga anor olib keladi. Bu juda oddiy holatdek tuyuladi, ammo Qahhor shu voqea orqali onaning mehrini, bolaning samimiyatini va hayotdagi eng pok tuyg‘ularni ko‘rsatadi. Ona o‘sha anorni yemay, bolasiga taklif qiladi. Chunki ona uchun o‘z farzandining quvonchi, sog‘lomligi va baxti hamma narsadan ustundir. Biroq oradan vaqt o‘tib, ona vafot etadi. Bola onasining yostig‘i ostidan o‘sha anorni topadi — u endi qurigan, ammo onaning muhabbatini o‘zida saqlab turgan timsollik meva bo‘lib qoladi. Bu manzara — juda qisqa, ammo yurakni larzaga soladigan holatdir. Bola o‘sha anorni qo‘liga olib yig‘laydi. Bu nafaqat onasiga bo‘lgan sog‘inch, balki kech anglangan haqiqat — onalar fidoyiligi cheksizligidir. Yozuvchi bu sahna orqali inson qalbining eng chuqur nuqtasiga yetadi.

Hikoyaning inglizcha tarjimasi asarning g‘oyaviy mohiyatini saqlab qolgan holda, biroz hissiy va poetik tus olgan. O‘zbekcha matnda xalqona soddalik, tabiiylik va milliy ruh

sezilsa, inglizcha variantda umuminsonga xos his-tuyg‘ular — sevgi, yo‘qotish va minnatdorlik kuchliroq ifodalanadi.

Masalan, o‘zbekcha matnda:

“Bola onasining yostig‘i ostidan o‘sha anorni topdi — u qurib qolgan edi.”

Realistik inglizcha talqinda esa bu sahna quyidagicha ifodalanadi:

“When the boy was tidying her bed, he found the same pomegranate under her pillow — dried and shriveled.”

Bu namunada matn soddaroq, voqea bevosita ifodalangan. Tarjimon asardagi realistik ruhni saqlashga intilgan. Bola ko‘rgan manzara aniq va vizual — qurigan anor onaning fidoyiligi va muhabbatining timsoli sifatida ifodalanadi.

Poetik inglizcha tarjimada esa quyidagi ifoda uchraydi:

As he lifted his mother’s pillow, a dry pomegranate rolled into his palm — a silent symbol of love that never fades.”

Bu tarjimada badiiylik kuchaygan, hissiy ohang aniqroq seziladi. “A silent symbol of love that never fades” iborasi orqali tarjimon onalik mehrini falsafiy va umumiylashgan shaklda ifodalagan. Bu so‘zlar o‘quvchining his-tuyg‘usiga yanada kuchliroq ta’sir qiladi. Taqqoslaganda, birinchi tarjimada realistik tasvir, soddaroq tuyg‘ular ustun bo‘lsa, ikkinchi tarjimada ramziy ma’no va hissiy chuqurlik yetakchilik qiladi. Har ikkala tarjima ham asarning ma’naviy mohiyatini saqlagan bo‘lsa-da, yo‘nalishi turlicha: biri milliylikni, ikkinchisi esa umuminsoniylikni kuchliroq yoritgan.

Tarjima nazariyasi nuqtai nazaridan, birinchi variant formal ekvivalentlik, ikkinchisi esa dinamik ekvivalentlik namunasi hisoblanadi

Shuningdek, inglizcha talqindagi so‘nggi jumla:

“He truly understood the depth of a mother’s love — silent, selfless, and eternal,”

Asar mazmunini falsafiy darajaga ko‘taradi. Bu yerda onalar sevgisi so‘zsiz, fidoyi va abadiy ekanligi universallashtirilgan g‘oyaga aylanadi.

Psixologizm va kompozitsion qurilish: “Anor” hikoyasida psixologik tasvirlar deyarli dialogsiz, ichki monologsiz ifodalanadi. Qahhor his-tuyg‘uni voqea va predmetlar orqali beradi — bu uslub psixologik realizmning o‘ziga xos ko‘rinishidir. Onaning yostig‘i ostidagi qurigan anor — aynan psixologik detal bo‘lib, u gapirmaydi, ammo o‘quvchi qalbiga murojaat qiladi.

Kompozitsiya ixcham, ammo dramatik kuchga ega. Voqea boshlanishi — rivoji — cho‘qqisi — yechimi tabiiy ketma-ketlikda, ortiqcha badiiy vositalarsiz beriladi. Hikoyaning kuchi ham aynan soddalikda.

Onalik timsoli va umuminsoniy g‘oya, Qahhor hikoyasida onalik timsoli milliylik va umuminsoniylikning uyg‘unlashgan shaklida ifodalanadi. O‘zbek an‘analarida ona —

oilaning ruhi, mehr va sadoqat timsoli hisoblanadi. Hikoyada bu qadriyatlar nihoyatda tabiiy tasvirlangan.

Inglizcha tarjimada esa mazmun kengroq, umuminsoniy talqinda namoyon bo‘ladi:

“silent, selfless, and eternal” — bu ibora onalikning butun insoniyat uchun birdek ahamiyatga ega ramz ekanini anglatadi.

Asarning badiiy jihatlarini ta’kidlansa – Qahhor hikoyalarining o‘ziga xos jihati — ortiqcha so‘zsiz, soddaligi bilan chuqur ma’no berishidir. “Anor”da ham biror murakkab voqea yo‘q, ammo har bir satrda hayotiy og‘riq, mehr va insoniylik seziladi. Anor — bu yerda ramz. U hayot, mehr, fidoyilik, onalikning abadiy belgisi. Ona uni yemaydi, chunki u o‘z mehrini farzandiga beradi. Bu ramz oddiy meva ortidan butun insoniy mohiyatni ochib beradi. Boshqa tomondan, hikoyada ona va bola o‘rtasidagi dialog juda qisqa, lekin har bir so‘z yurakdan chiqqan. Bu suhbat orqali muallif o‘quvchining o‘z onasini eslashiga, o‘tmishdagi mehrli lahzalarni his qilishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa shuki, “Anor” hikoyasi hajman kichik, ammo ma’nosi jihatidan juda katta asardir. Abdulla Qahhor bu hikoya orqali o‘quvchini onaning mehriga, fidoyiligiga chuqur hurmat bilan qarashga chorlaydi. O‘zbekcha matnda milliy qadriyatlar, onalikka xos or-nomus va sadoqat aniq sezilsa, inglizcha tarjimada asarning umumiy insoniy mazmuni — sevgi va minnatdorlik kuchli ifodalanadi. Hikoya bizni o‘ylashga majbur qiladi: ko‘pincha eng buyuk mehrni biz kech anglaymiz. Onaning bir og‘iz so‘zi, bir qarashi, hatto yostig‘i ostidagi qurigan anor ham hayotdagi eng muqaddas tuyg‘uni eslatadi. Shu jihatdan “Anor” nafaqat o‘zbek adabiyotining, balki butun jahon adabiyotining insoniylik haqidagi eng ta’sirli namunalaridan biri deb baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qahhor A. Hikoyalar. — Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 1980. — 240 b.
2. Nida E. A. Language, Culture, and Translating. — Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 2001. — 218 p.
3. Halliday M., Hasan R. Cohesion in English. — London: Longman, 1976. — 374 p.
4. Mahmadiyor Asadov. HOMO POETIKUS KONSEPSIYASI: NAVOIY VA RUMIY. Jild 1 No 1 (2025): Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiyning vazn va rumiy.
5. Mahmadiyor Asadov. (2025). The concept of individualism and absurdity in Camus’ the stranger. American Journal of Philological Sciences, 5(3), 119–123.
<https://doi.org/10.37547/ajps/Volume05Issue03-30>

6. Asadov M. (2020) Альбер Камю ва Хуршид Дўстмухаммад прозасида абсурд қаҳрамон муаммоси // Сўз санъати соҳлиги, 3-жилд, 2-сон. Тошкент. 2020 йил. — Б. 117–126.

7. Mamarasulova, Gulnoz. "Geopolitical Discourse InTranslation." International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research. Vol. 1. No. 4. 2025.